

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MAHMUDXO'JA BEHBUDIY
HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH BO'YICHA**

Dastur va uslubiy qo'llanma

Toshkent-2020

Mazkur dastur va uslubiy qo'llanma buyuk ma'rifatparvar adib Mahmudxo'ja Behbudiying hayoti va ijodini oliy ta'lif muassasalarida o'qitish uchun ishlab chiqildi.

Unda Behbudiy hayoti va ijodining barcha jabhalari qamrab olindi. Dastur qismlarida Behbudiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar birlamchi manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, Behbudiy ilgari surgan g'oyalarni talaba-yoshlarga sodda va tushunarli qilib yetkazish maqsadida jadidchilik harakatining asosiy nuqtalariga murojaat qilinib, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy istiqlol g'oyasi bilan hamohang jihatlarni singdirishga harakat qilindi.

Mazkur dastur va uslubiy qo'llanma Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori,
professor

Tuzuvchi:

Zaynobidin Abdirashidov,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar:

Sulton Normamatov,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Sirojiddin Ahmedov,
san'atshunoslik fanlari nomzodi

Mazkur uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdaggi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

I. KIRISH

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodini o‘qitish bo‘yicha dastur oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Unda mazkur kusning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo‘lib, Behbudiy hayoti va ijodi, siyosiy-ijtimoiy faoliyati, publitsistik mahorati, maktab-maorif, madaniyat sohasida amalga oshirgan ishlari yoritilgan. Ularni singdirish dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha o‘tiladigan turkum mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

II. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING MAQSADI

Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Behbudiy hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, jadid ma’rifatparvarlarining milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rnini birligina Behbudiy faoliyati misolida ochib berish, Behbudiyning bugungi milliy ma’naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.

III. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING VAZIFALARI

- XX asr boshlaridagi Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Behbudiyning tutgan o‘rni va mavqeyini ochib berish;
- Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiga doir muhim ma’lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish;
- Behbudiyning maktab-maorif, publitsistika, matbaa ishlaridagi faoliyatini atroflicha ochib berish;
- bugungi istiqlolning kurtagi dastlab Behbudiy kabi ma’rifatparvar ajdodlarimiz ko‘ksida nish urib yetilganligiga e’tiborni qaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Behbudiy faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish;
- Behbudiy hayot yo‘li va faoliyati asosi bo‘lgan Jasorat, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma’rifatparvarlik, erkparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik kabi fazilatlarning ma’navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish;
- Behbudiyning adib sifatida yaratgan ijod mahsullari – “Padarkush” dramasi, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma’no-mazmunini, g‘oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.

IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- jadidchilik harakatining, xususan, Behbudiy faoliyatining bugungi milliy mafkuramiz bilan hamohang jihatlarini anglab yetishlari;
- Behbudiy hayoti va ijodi yuzasidn ma’lumotga ega bo‘lishlari, o‘zlashtirgan bilimlarni to‘g‘ri mushohada eta olishlari;

- Behbudiyning publitsistik faoliyati, jumladan, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy mavzudagi maqolalari bilan tanishish, ularda aks ettirligah g'oyalarni talqin qila olishlari;
- Behbudiyning adib sifatidagi qiyofasini ochb beruvchi "Padarkush" dramasi, tarjima asarlarini o'rganish;
- Behbudiy muharrirligida nashr etilgan "Samarqand" gazetasi hamda "Oyina" jurnali materiallari bilan tanishish, ularning milliy matbuotdagi o'rni haqida tasavvurga ega bo'lishlari.

V. FAKULTATIV O'QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LQLIGI

Fakultativ o'quv kursi – "Milliy uyg'onish adabiyoti", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Pedagogika", "Tarix", "Madaniyatshunoslik", "Milliy matbuot". "Syoatshunoslik", "Milliy g'oya va mafkura" va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqador hisoblanadi.

VI. FAKULTATIV O'QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI

Fakultativ o'quv kursining hajmi:

Nº	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat
1	Ma'ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	JAMI:	20

Mashg'ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	Mavzular	Mazmuni	Kutiladigan natija	soat
				8
1	Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi	Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi, u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida ma'lumot beriladi. Behbudiy ijodini o'rganishning ahamiyati tushuntiriladi. Behbudiy	Jadidchilik mazmuni Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi misolida tushuncha hosil qiladilar, XX asr boshlaridagi davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ijodkor dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir	2

		dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir ko'rsatgan omillar izohlanadi.	ko'rsatgan omillar haqida xulosa chiqarish ko'nikmalari hosil bo'ladi.	
2	Behbudiyning maorif sohasidagi faoliyati. Behbudiy darsliklari	O'tgan asr boshlari turkistonda mavjud yangi usul maktablari tashkil etishda Behbudiyning roli yoritib beriladi. Behbudiyning pedagoglik faoliyati, darsliklari haqida ma'lumot beriladi.	XX asr boshlaridagi milliy pedagogikamizning tamal toshini qo'yishda Behbudiy amalga oshirgan ishlar, yangi usul maktablaridagi darsliklarning o'ziga xos tomonlari, o'qitish tizimi, hukumat va mahalliy xalq munosabati kabi masalalarni anglab yetadilar	2
3	Behbudiy va matbuot	Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik faoliyati, maqola va xabarları, uning muharrirligida nashr etilgan "Oyina" jurnali va "Samarqand" gazetasi faoliyati bilan tanishtiriladi. Behbudiy publitsistikasining o'ziga xos jihatlari, unda aks ettirilgan g'oyalalar, tahlil qilinadi	Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasi to'ligicha Istiqlol ruhi, maqsadlari bilan yo'g'rilganligi, millat manfaati uchun xizmat qilganligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Uning muharrirligida nashr etilgan "Oyina" jurnali va "Samarqand" gazetasi faoliyati bilan tanishadilar. Behbudiy publitsistikasining o'ziga xos jihatlari, unda aks ettirilgan g'oyalarni tushunib yetadilar.	2
4	Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlari. Behbudiy va milliy g'oya targ'iboti	Milliy mustaqillikka erishish uchun Behbudiy tanlagan siyosiy-mafkuraviy yo'l, idora usuli, Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi, Behbudiyning diplomatik faoliyati, huquqiy qarashlarinibugungi kun nuqtayinazaridan baholash ko'nikmasiga ega bo'ladilar	Behbudiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlari, siyosiy jarayonlardagi tutgan o'rni, Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi, Behbudiyning diplomatik faoliyati, huquqiy qarashlarinibugungi kun nuqtayinazaridan baholash ko'nikmasiga ega bo'ladilar	2
SUHBAT-MULOQOTLAR				4
1	Mahmudxo'ja	Turkistonda "jadid"	Gasprinskiyning Turkiston	2

	<p>Behbudiy va Turkistonda jadidchilikning shakllanishi</p> <p>nomini olgan ziyoli qatlam XX asrning birinchi 10 yilligida shakllanishi, Turkiston jadidchiligining asosini Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo‘qon shaharlari va atrofidagi ma’rifatparvarlar tashkil etgani, Turkistonga jadidchilik g‘oyalaring kirib kelishida jadidchilik harakatining asoschisi qrimlik Ismoil Gasprinskiyning (1851-1914) faoliyati, ayniqsa, u nashr qilgan “Tarjimon” gazetasi muhim rol o‘ynagani, Behbudiyning 1899-yili haj qilish uchun sayohatga chiqishi va islohotchilik g‘oyalari bilan tanishganligi, Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili Turkistonda mahalliy tilda chiqqan rasmiy “Turkiston viloyatining gazeti”dan boshlangani, Behbudiyning siyosatga doir nazariy qarashlari uning “Kitob-i muntaxab-i jug‘rofiya-i umumiy va namuna-i jug‘rofiya” darsligida, “Duma va Turkiston</p>	<p>ziyolilariga, xususan, Behbudiya ko‘rsatgan ta’siri, Behbudiyning davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridan boxabar bo‘lishida “Tarjimon” gazetasining o‘rni, ushbu ikki ma’rifatparvarning “til birligi” masalasidagi qarashlari, Gasprinskiy g‘oyalarni Turkistonda keng yoyishda Behbudiyning xizmatlari to‘g‘risida yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.</p>	
--	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

		musulmonlari”, “Xayr ul-umuri avsatuh”, “Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz” va shu kabi maqolalarida o‘z ifodasini topgan, uning adabiy, pedagogik faoliyati tahlil qilinadi.		
2	“Behbudiya kutubxonasi” va kitobxonlik	Kutubxonaning ziyolilar va ilm ahliga foydasi behad ulkan bo‘lganligi, u Behbudiyning keyingi faoliyati – “Oyina”, “Samarqand” nashrlari uchun asos manbalardan biri bo‘lib xizmat qilganligi, “Padarkush” dramasining ham ilk bor sahna yuzini ko‘rishi bevosita kutubxona turtkisi samarasi bo‘lganligini tushuntiriladi. Ushbu kutubxonada Rossiya va xorijda nashr etilgan 225 jild kitoblar, gazeta-jurnallar, entsiklopediya, lug‘atlar, xarita va atlaslar ham o‘rin olganligi haqida ma’lumot berib o‘tadi. Kutubxona faoliyatida Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va muallim Abdulqodir Shakuriylarning alohida o‘mi bo‘lganligi xususida	Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Behbudiy hayotini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san’at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo‘ladi. Talabada jadidchilik harakati, jadidlarning milliy hurriyat yo‘lidagi jasoratini xolisona baholash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.	2

		bayon etiladi.		
MUNOZARALAR				4
1	Behbudiyning “Oyina” jurnali	<p>Mashg‘ulot avvalida Behbudiyning matbuot sohasiga kirib kelshida turtki bo‘lgan omillar, Turkistondagi vaqtli matbuotning ahamiyati, dastlabki ildizlari masalalariga to‘xtalinadi. Shundan so‘ng 1913 yil 20 avgustda Behbudiy muharrirligida nashr etilgan ilk milliy jurnal “Oyina”ning faoliyati, jurnalning yuzaga kelishida Behbudiyni ruhlantirgan omil dastlabki tatar jurnali “Mir’ot” (“Oyina”) bo‘lganligi ta’kidlanadi.</p> <p>“Oyina”ning maqolalari o‘zbek va tojik tillarida yozilgan bo‘lib, buning ko‘proq ulushi o‘zbek tiliga to‘g‘ri kelishi, jurnalda 16 xil turdagি materiallar berib borilganligi to‘g‘risida ma’lumot berib beriladi.</p>	<p>Turkistondagi vaqtli matbuot, “Oyina” jurnalining tashkil topishi, jurnal sahifalaridagi muhim ilmiy-ma’rifiy maqola, sayohatnoma, xabarlarning qiymati, “Oyina” Behbudiyning ma’rifatchilik g‘oyalarini keng yoyishda asosiy minbar vazifasini ham o‘taganligi to‘g‘risida yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.</p>	2
2	“Padarkush” dramasining tarbiyaviy ahamiyati	<p>O‘zbek dramaturgiyasining ilk nishonasi hisoblangan “Padarkush” dramasining asosiy mohiyatini, g‘oyaviy maqsadlarini bayon qilib beriladi.</p> <p>“Padarkush”ning o‘z davrida juda zarur</p>	<p>yoshlar ushbu dramani o‘rganish davomida inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmasligi, unda ma’naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik ham bo‘lishi lozimligini anglab yetadilar, dramadagi har bir obraz tabiatini orqali o‘scha davr ijtimoiy muhiti,</p>	2

		<p>vaqtida yaratilganligi, Turkistonning barcha shaharlarida sahnalashtirilganligi, dramaning ko‘plab boshqa dramalarning yaratilishiga turtki bo‘lganligini izohlab o‘tiladi. Ushbu dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma’rifat ulug‘lanishi, muallif tomonidan “o‘qimagan bolaning holi”ni, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib olinishi drama voqealari misolida asoslanadi. Yoshlar ta’lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini drama negizada tushuntirishga urg‘u beriladi.</p>	<p>insonlar dunyoqarashi, axloqi to‘g‘risida xulosalar chiqarishadi. Dramadagi obrazlar orqali jamiyatdagi ilmlilar bilan ilmsizlar, ma’rifatlilar bilan johillar, ogohlar bilan loqaydlar o‘rtasidagi kursh tasvirlanganligini anglab yetadilar.</p>	
--	--	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

TAQDIMOT

4

1	Behbudiy darsliklari	<p>Behbudiy jadid maktablari tashkil etish bilan bir qatorda, ushbu maktablarda o‘qitish uchun bir qator darsliklar yozganligi xususida ma’lumot berib o‘tiladi. Behbudiyning nima sababdan geografiyaga ko‘p urg‘u bergenligi izohlanadi. Behbudiyning ushbu</p>	<p>Turkistonda usuli jadid maktablarining tashkil topishi, an’anaviy o‘qitish tizimidan farqli jihatlari, Behbudiy ochgan maktablar, darsliklar, imtihon jarayoni, qadimchi ulamolar ta’qibi va rus hukumati tazyiqiga uchragan maktablar xususida o‘z bilimlarini oshirib boradilar.</p>	2
---	----------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---

		darsliklari mukammal ilmiy asar sifatida ham qimmatli ekanligi asoslab beriladi.		
2	Behbudiy adib	Behbudiyning adib sifatidagi faoliayti yoritib beriladi. Behbudiy faqatgina ilm va matbuotning, jahon savdo-sanoat, fan taraqqiyotini Vatan va xalq ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnini tahqiq qilish bilan kifoyalanmay, adabiyot va san'atga katta e'tibor qaratganligi to'g'risida fikr-mulohazalar bildiriladi. "Oq yelpig 'ichli xonim" va "Bir vafodolik zaifa xususida hikoya"larni tarjima qilib turkistonlik vatandoshlariga havola qilganligi ta'kidlab o'tiladi.	Behbudiy tarjimalari badiiyati, "Padarkush" fojiasining g'oyaviy maqsadi, Behbudiyning jahon adabiyoti namunalariga bo'lgan qiziqishi, fransuz adabiyotiga xos muammolarga o'zbek ziyolilarini jalb etishni maqsad qilganligini anglab yetadi.	2

VII. "MAHMUDXO'JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODI" KURSINI O'QITISHNING O'QUV-USLUBIY TA'MINOTI

"MAHMUDXO'JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODI" KURSINING SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi		
OTMning nomi va joylashgan manzili:		
Kafedra:	O'zbek tili va adabiyoti	
Ta'lrim sohasi va yo'nalishi:		

Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:		e-mail:	
Dars vaqtি va joyi:		Kursning davomiyligi:	
Individual grafik asosida ishslash vaqtি:			
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari	Mustaqil ta’lim:	30
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):	Ma’ruza: 8 Seminar 12		
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o‘quv kursi – “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot”. “Syoatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.		
Fanning mazmuni			
Kursning maqsad va vazifasi:	<p>Fanning asosiy maqsadi - Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Behbudiy hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, jadid ma’rifatparvarlarining milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rnini birgina Behbudiy faoliyati misolida ochib berish, Behbudiyning bugungi milliy ma’naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> – XX asr boshlaridagi Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Behbudiyning tutgan o‘rni va mavqeyini ochib berish; – Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiga doir muhim ma’lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish; – Behbudiyning maktab-maorif, publitsistika, matbaa ishlaridagi faoliyatini atroflicha ochib berish; – bugungi istiqlolning kurtagi dastlab Behbudiy kabi ma’rifatparvar ajdodlarimiz ko‘ksida nish urib yetilganligiga e’tiborni qaratish; – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Behbudiy faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish; – Behbudiy hayot yo‘li va faoliyati asosi bo‘lgan Jazorat, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma’rifatparvarlik, erkparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik kabi fazilatlarning 		

	ma’navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish; Behbudiyning adib sifatida yaratgan ijod mahsullari – “Padarkush” dramasi, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma’no-mazmunini, g‘oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o‘zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - jadidchilik harakatining mohiyati; - Behbudiyning hayoti va faoliyati; - yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishiga xos xususiyatlari <i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi</i>; - jadidchilik harakatining kelib chiqish sabablari; - jadidchiliknин asosiy yo‘nalishlari; - Behbudiy hayot yo’li; - Behbudiy ijodi; - yangi adabiyotning shakllanishida matbuotning o‘rnini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; - jadidcilikning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolini tushuntira bilish; - jadidchilik harakati vakillarining hayoti va ijodini o‘rganilish darajasini tahlil qila olish; - adabiyotning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish; - jadidchili harakatining shakllanishiga sabab omillarni izohlay olish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

**Sillabus taqvim:
Otiladigan mavzular ro‘yhati:**

Nº	Mavzular	Ma’ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Jadidchilik harakatining shakllanishi va tadriji. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi	2 soat			
2	Behbudiyning maorif sohasidagi faoliyati. Behbudiy darsliklari	2 soat			
3	Behbudiy va matbuot	2 soat			
4	Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlari. Behbudiy va milliy g‘oya targ‘iboti	2 soat			

5	Mahmudxo‘ja Behbudiy va Turkistonda jadidchilikning shakllanishi		2 soat		
6	“Behbudiya kutubxonasi” va kitobxonlik		2 soat		
7	Behbudiyning “Oyina” jurnali			2 soat	
8	“Padarkush” dramasining tarbiyaviy ahamiyati			2 soat	
9	Behbudiy darsliklari				2 soat
10	Behbudiy – adib				2 soat
Jami		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat
Asosiy adabiyotlar:		1. Абдирашидов З., Эгамқурова Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва “Ойина” журнали. Тошкент: Мухаррир, 2019. 2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. –Тошкент: Akademnashr, 2018. 3. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов) 3-нашри. Тошкент: Маънавият, 1999.			
Qo‘srimcha adabiyotlar:		1. Алиев А. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент: Хазина, 1994. 2. Алимова Д. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. Тошкент: Академия, 1999. 3. Балдауф Ингеборг. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001. 4. Долимов, У. Туркистонда жадид мактаблари. Тошкент: Университет, 2006 5. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Faafur Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2009. 6. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент: Университет, 1999. 7. Ислом Гаспринский ва Туркистон. Тошкент: Шарқ, 2005. 8. Ризаев, Ш. Жадид драмаси. Тошкент: Шарқ, 1997.			

	<p>9. Содиқов, Ҳ. и др. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тошкент: Шарқ, 2000.</p> <p>10. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.</p> <p>11. Қосимов Б. Маслакдошлар. – Тошкент: Шарқ 1994.</p> <p>12. Қосимов Б. Миллий уйғониш жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.</p> <p>13. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.</p> <p>14. Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш (жадидчилик, муҳториятчилик, истиқлолчилик). Халқаро конференция материаллари. Тошкент: Маънавият, 2001.</p> <p>15. Муҳаммаджонова Л. Жадид мутафаккирларининг ахлоқий-эстетик қарашлари. – Тошкент: Университет, 2007.</p>
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti	<p>1. www.ziyouz.com</p> <p>2. www.e-tarix.uz</p> <p>3. www.ziyouz.com</p>

“МАHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING MA’RUZA TEXNOLOGIYASI

Vaqti: 2 soat	Talabalar soni _____ nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Muammoli ma’ruza
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	
<p>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘zbek tili leksikaning mustaqillik sharoitidagi taraqqiyoti va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda bu jarayonda yuzaga kelgan leksik o‘zgarishlarni o‘qitishning eng samarali usullarini ko‘rsatib berishdan iboratdir.</p>	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyatining natijalari.
<ul style="list-style-type: none"> - o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan bog‘liq jarayonlarni tanishtirish; - o‘zbek tili leksikasidagi faollashgan jarayonlarning turlari bilan tanishtirish; - terminlarning taraqqiyoti va rivojini 	<p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - o‘zbek tilining davlat tili maqomidagi masalasiga tavsif beradi; - leksik hodisalarining turlarini aytib beradi va izohlaydi; - terminlarni tasnifi orqali guruhlarga

ko'rsatib berish;	ajratadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Visual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, "BBB" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
O'qitish shakli	Jamoa va guruh bo'lib ishslash
O'qitish shart-sharoiti	Elektron doska bilan jihozlangan xona

MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqich-lari va vaqtি	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. 10 daqiqa	O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	Talabalar mashg'ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta'limiy faoliyatga tayyor bo'ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa	Ma'ruza mashg'uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Ma'ruzaning asosiy terminlari bilan tanishtiradi, ularni izohlaydi. Ma'ruzani bayon qilish davomida interfaol o'qitish usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.	Mashg'ulot mavzusi bo'yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi. Talabalarda ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o'quv-bilish faoliyatlari to'g'ri rejalashtiriladi. Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishslash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi. Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar. O'rganayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadi. Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislар shaklida yozib oladilar. Talabalar faol hamkorlikda

		ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va mas'uliyatlilik kabi kasbiy sifatlar shakllanadi. Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar.
3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa	Talabalar tomonidan ma'rizada keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik esse yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.	Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.
Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa	Mavzuni to'liq o'zlashtirish, muloqot vositalarining har biriga misollar tayyorlab kelish.	Mavzu bo'yicha maqola tayyorlaydilar.

VII. KURS YUZASIDAN MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL TA'LIM YUZASIDAN KO'RSATMALAR

O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'lism-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;

- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lism-tarbiya jarayonini loyihalash;

- o'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limga didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash;

- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ta'lism tizimida interfaol ta'lism texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:

Asosiy shakllar



Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) “inter” – o'zaro, ikki taraflama, “act” – *harakat qilmoq, ish ko'rmoq* kabi ma'nolarni anglatadi.


Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida bирgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim hisoblanadi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida bирgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqtiga egaliklaridir.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An'anaviy ta'lilda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (magistrant)larga etkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rnlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

Interfaol ta'limganing asosiy belgilari



Bugungi kunda respublika ta'limga muassasalarida interfaol ta'limganing quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

- 1. Interfaol metodlar:** "Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va boshalar.
- 2. Strategiyalar:** "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galeriya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.
- 3. Grafik organayzerlar:** "Baliq sekleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagremlamasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar.

Keyingi yillarda ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosiy o‘rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim *shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim* deb nomlanadi. Ushbu ta’lim pedagog va magistrant o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantni qadriyat sifatida e’tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Modulli ta’lim texnologiyasi.
2. Muammoli ta’lim texnologiyasi.
3. Interfaol ta’lim texnologiyasi.
4. Individual ta’lim texnologiyasi.
5. Masofaviy ta’lim texnologiyasi.
6. Kompyuter ta’lim texnologiyasi.
7. Hamkorlik ta’lim texnologiyasi.
8. Loyiha ta’lim texnologiyasi.
9. Dasturiy ta’lim texnologiyasi.
10. Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyasi.
11. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi.
12. O‘yin texnologiyalari.
13. Gender ta’lim texnologiyasi.
14. Quvvatni tejovchi ta’lim texnologiyasi.

Mazkur ta’lim texnologiyalaridan *modulli ta’lim*, *muammoli ta’lim* va *interfaol ta’lim texnologiyalarini* faol qo‘llash tavsiya qilinadi.

Ta’lim jarayonida faol qo‘llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys stadi** hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo‘llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshirishi e’tirof etilmoqda.

Keys-stadi – (inglizcha *case* – to‘plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta’lim) keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarini muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan haqiqiy yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o‘qitish metodi.

Keys-stadi usuli qo‘llanilgan o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi Ishlar bosqichi va mazmuni

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg‘ulotlarda arqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasи bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojla nishiga ta’sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.

2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushun-chalari bo‘yicha tezkor-so‘rov o‘tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg‘ulotda ishlash tartibi, baholash ko‘rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlash tiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alovida Ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e’tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo‘lla-rini aniqlashni, so‘ngra uni yechish topshirig‘ini beradi	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag‘ini to‘ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko‘rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag‘ini to‘ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag‘ini tayyorlash bo‘yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o‘zaro baholashni tashkil-lashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e’tibor qaratadi.	Guruhlar taqdimot Qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtiroy etadilar, savollar beradilar

KONSEPTUAL JADVAL

O‘rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o‘rgatish, muammoni tahlil qilish, ma’lumotlarni tuzulmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo‘nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so‘z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontal bo‘yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo‘yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jixat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o‘zlashtirilayotgan o‘quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg‘ulotning metodik ta’minotini

yanada boyitadi. Muayyan matn bo'yicha konseptual jadvallarni mikrogoruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg'ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o'tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig'ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Fakultativ o'quv kursini o'qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan** foydalanish mumkin Shuningdek, o'qitishning an'anaviy va ilg'or usullarini, shuningdek, o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovları, dasturiy o'qitish, davra suhbatlarini o'tkazish, muammoli o'qitish texnik vositalarini qo'llash, ekskursiya va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lif-tarbiya jarayoni mashg'ulotlari ma'ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg'ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo'llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o'quv kursini zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- "Aqliy hujum", "Debatlar" "Rreynstorming", "Klaster" (axborotni yig'ish), "Sinkveyn" (axborotni yig'ish, "Akvarium", "Charxpalak", "Gyalar bahsi", "Matbuot-konferensiyasi" kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.
- Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish.
- Talabalarning kichik guruhlarga bo'lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish.
- ma'ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).
- Test savollari tuzish.
- "Tayanch" iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o'zlashtirishda ko maklashish.
- talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko'rgazmali ma'ruza qilishga o'rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti o'quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- tarqatma materiallar bo'yicha fakultativ o'quv kurs mavzularni o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo'yicha 3-5

sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

- O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul mashg‘ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.
- O‘z-o‘zini baholash orqali bilimni uzlusiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o‘z bilimini o‘zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariiga qayd etib boradi.
- Fakultativ o‘quv mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ishlash hamda ularni o‘rganish;
- Talabalarning mustaqil ta’lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o‘quv kursining muayyan mavzularni chuqur o‘rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.
- Internet materiallari.
- Audio manbalar.
- Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.
- Avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu mashg‘ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH:

Taqdimotlar fakultativ o‘quv kursda olingan bilim, malaka va ko‘nikmaning amalda qo‘llanilishi, ya’ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini o‘taydi. Taqdimotlar o‘quv taqvimi rejada ko‘rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag‘ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi :

- fakultativ o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o‘rganish.
- internet materiallarini topish va unumli foydalanish;
- adivizual manbalardan foydalanish;
- axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI:

1. Turkiston xalqining milliy qahamoni
2. Behbudiylar hayoti va faoliyatining o‘rganilishi
3. Behbudiyning boshqaruv usullari va siyosiy partiyalar faoliyatiga doir qarashlari
4. Behbudiyning “Sayohat xotiralari”
5. Behbudiyning jadid-qadim munozaralariga munosabati
6. Behbudiylar va teatr
7. Behbudiylar va matbuot
8. Behbudiylar – adib
9. “Oyina” jurnalining milliy jurnalistikamizda tutgan o‘rnini

- 10.Behbudiyning tanqidiy qarashlari
- 11.Behbudiy publitsistikasi
- 12.Behbudiyning “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya” darsligi xususida
- 13.Behbudiyning til masalasiga oid qarashlari
- 14.“Behbudiya kutubxonasi” haqida
- 15.Behbudiy va duma
16. Behbudiy va milliy g‘oya targ‘iboti
- 17.I.Gasprinskiy va Behbudiy munosabatlari
- 18.“Padarkush” – birinchi milliy o‘zbek dramasi
- 19.Behbudiyni tanish
- 20.Behbudiy – xodimul millat.

VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI

MA’RUZALAR

Birinchi mashg‘ulot: Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi.

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi bilan aloqador eng muhim va asosli ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Behbudiy jadidchilik harakatining rahbari sifatida xalq uchun manfaati bor amaliy ishlar bilan qizg‘in shug‘ullanganligi, xusan, jadid maktablari tashkil etish, teatr san’atiga asos solish, gazeta-jurnal chop qilish, nashriyot hamda kutubxona tashkil etishdagi fidoyiliklari, siyosiy, ma’rifiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda birdek xizmat qilganligi xususida aytib o’tadi. Uning alohida ta’kidlaydi. Ijodkor yashagan tarixiy sharoit va davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari to‘g‘risida tasavvur uyg‘otadi. Behbudiy hayoti va faoliyati tadqiq etilgan ishlar bilan tanishtiradi. Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga kirib kelishida muhim ta’sir ko‘rsatgan omillar izohlanadi. Behbudiy hayoti va ijodini o‘rganishning ahamiyatini bugungi milliy g‘oya va mafkura negizida tushuntirib o’tadi.

(*Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi*)

Interfaol metod

Mazkur mashg‘ulotda o‘qituvchi Didaktik o‘yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o‘qituvchining kirish so‘z bilan ochiladi. U kirish so‘zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Behbudiy hayoti va ijodini o‘rganishning muhim jihatlarini yoritish, jadidchilik g‘oyalarining bugungi milliy mafkuramizga mos keluvchi nuqtalarini tahlil qilish, Behbudiy faoliyati va qarashlarining keng targ‘ib etilishi va o‘rganilishi masalalariga bag‘ishlanishi, konferensiyada faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san’at va davlat arboblari, soha

mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. XX asr boshlari Turkistonda jadidlar amalga oshirgan islohotlar va ularning mohiyati nimadan iborat?
2. Mahmudxo‘ja Behbudiying siyosiy-ijtimoiy tafakkuri tadrijida muhim turtki bo‘lgan omillar
3. Behbudi ijodi bo‘yicha qanday tadqiqotlar yaratilgan
4. Behbudiya nisbatan rejalashtirilgan siyosiy qotillik sabablarini tushuntiring.

Qo‘llash: tarixiy haqiqatni to‘gri anglab yetishda, Behbudi faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Milliy matbuot” fanlarining tegishli mavzulariga qo‘llash mumkin.

Natija: Mahmudxo‘ja Behbudi hayoti va ijodi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Behbudi hayotini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san’at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo‘ladi. Talabada jadidchilik harakati, jadidlarning milliy hurriyat yo‘lidagi jasoratini xolisona baholash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar: Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish adabiyoti, Turkiston, maa’rifat, madaniyat, istiqlol, sayohat, haj safari, behbudiyshunoslik, yangi usul maktabi, gazeta, Vatan taraqqiyoti.

Ikkinchi mashg‘ulot: Behbudiyning maorif sohasidagi faoliyati. Behbudi darsliklari

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi Behbudiyning maorif sohasidagi faoliyati, usuli jadid maktablari, Behbudi darsliklari xususidagi ma’lumotlarni yetkazadi. O‘tgan asr boshlari Turkistonda mavjud yangi usul maktablari tashkil etishda Behbudiyning rolini yoritib beriladi. XX asr boshlaridagi milliy pedagogikamizning tamal toshini qo‘yishda Behbudi amalga oshirgan ishlar, yangi usul maktablaridagi darsliklarning o‘ziga xos tomonlari, o‘qitish tizimi, hukumat va mahalliy xalq munosabati kabi masalalalar atroflicha bayon qilinadi. Jamiyatni faqat ilmiy taraqqiyot, iqtisodiy yuksalish emas, balki ana shu taraqqiyot va yuksalishni amalga oshirishdagi ma’naviy poklik, go‘zal axloq, ya’ni komil e’tiqod mustamlakachilik sirtmog‘idan, favqulodda falokatlardan asrashi, tanazzuldan qutqarishi mumkinligini Behbudi qarashlari bilan uyg‘unlikda tushuntirib beriladi.

(*Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudi darsliklari yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi*)

Interfaol metod

Yoshlar uch guruhga bo‘linib, 1-guruh pedagog, 2-guruh ta’lim oluvchi, 3-guruh esa kuzatuvchi mansub vakillar sifatida ishtirok etishadi. Mashg‘ulot

davomida olingan tushunchalar asosida milliy pedagogikamizning ilk ko‘rinishlari, o‘qitish tizimi, jadid maorif ta’limidagi islohotlar xususida fikr yuritishadi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag‘batlantiriladi.

Qo‘llash: tajribali pedagog, san’atshunos, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

Natija: Behbudiyning pedagog sifatida olib borgan ishlari, tashkil etgan maktablari, ishlab chiqqan darsliklarining o‘ziga xosligi, jadid pedagogikasining bugungi milliy pedagogikamizda tutgan o‘rni, ahamiyatini tushunib yetadilar.

Tayanch iboralar: pedagogika, usuli jadid maktablari, darslik, diniy hamda dunyoviy fanlar, qadim-jadid munozarasi, savodxonlik, madrasa va mакtab ta’limi, o‘qitish tartibi.

Uchinchi mashg‘ulot: Behbudiy va matbuot

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik faoliyati, maqola va xabarları, uning muharrirligida nashr etilgan “Oyina” jurnali va “Samarqand” gazetasi faoliyati biln tanishtiradi. Behbudiy publitsistikasining o‘ziga xos jihatlari, unda aks ettirilgan g‘oyalalar, tahlil qilinadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasi to‘laligicha Istiqlol ruhi, maqsadlari bilan yo‘g‘rilganligi, millat manfaati uchun xizmat qilganligi haqida bayon etiladi. Vaqtli matbuotning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga o‘tkazgan ta’siri, Behbudiyning matbuot ishlarida turk, tatar, ozarbayjon, rus matbuoti tajribalari asosida ish ko‘rganligi, matbuot va mahalliy aholi munosabati, mushtariy va muharrirlar malakasi qay darajada bo‘lganligi, Behbudiy publitsistikasida aks etgan g‘oyalarning bugungi kunga muvofiqligi masalalari bayon etiladi.

(Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiy va matbuot mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

O‘qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Behbudiy publitsitikasi qanday g‘oyalarni aks ettirgan? savoli bo‘yicha quyida fikrlaringizni bayon eting?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o‘zlari yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilishlari so‘raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. O‘qituvchi esa ularning fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali mavzuni to‘g‘ri anglashlariga harakat qiladi.

Qo'llash: adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi, dinshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg'ulot olib boriladi.

Natija: yoshlarda Behbudiyning publitsist, noshir sifatidagi faoliyati haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Behbudiyning milliy matbuotimiz rivojiga qo'shgan ulushi, maqola va xabarlarining qanday maqsadlarga xizmat qilganligi, tashqi davriy nashrlardagi ishtiroki masalalarini tahlil etadilar. "Oyina" jurnali hamda "Samarqand" gazetalari faoliyati misolida Behbudiyning muharrirlik iqtidoriga baho berish imkoniga ega bo'ladilar. Behbudiylar til, madaniyat, matbuot, taraqqiyot haqidagi fikrlarining bugungi kunda ham naqadar dolzarbligini anglab yetadilar.

Tayanch tushunchalar: Behbudiylar, matbuot, felyeton, publitsistika, "Oyina" jurnali, "Samarqand" gazetasasi, tanqid, senzura, muharrirlik faoliyati.

To'rtinchi mashg'ulot: Behbudiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlari. Behbudiylar va milliy g'oya targ'iboti

O'tkazish shakli: ma'ruza.

O'qituvchi talabalarni Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlari va ularning milliy g'oya targ'ibotidagi o'rni haqida tushuncha beradi. Ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni amalga oshirish maqsadida ijtimoiy-siyosiy maydonga kelgan jadidlarning birlashishi va keng qanot yozishida Behbudiyning xizmatlari beqiyos ekanligiga urg'u berib o'tadi. Milliy mustaqillikka erishish uchun Behbudiylar tanlagan siyosiy-mafkuraviy yo'l, idora usuli, Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi, Behbudiyning diplomatik faoliyati, huquqiy qarashlari tahlil qilinadi. Behbudiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlari, siyosiy jarayonlardagi tutgan o'rni, Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi, Behbudiyning diplomatik faoliyati, huquqiy qarashlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan baholashga harakat qiladi. Behbudiyning dindan diniy-etnik adovatni kuchaytirish maqsadlarida emas, balki milliy-ozodlik, ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda, Turkistondagi yetakchi siyosiy kuchlar va ijtimoiy qatlamlarni birlashtirish yo'lida foydalanish tarafidori bo'lganligi to'g'risida fikr-mulohaza bildiriladi.

(Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiylar va matbuot mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Yoshlar 2 guruhga bo'linadilar. 1-guruh Behbudiyning siyosiy-huquqiy mavzudagi maqolalarini, 2-guruh Behbudiyning milliy o'zlik, qadriyatlar xususidagi qarashlarini tahlil etadilar. Mashg'ulot jarayonida olingan tushuncha va ma'lumotlar asosida to'g'ri va notog'ri fikrlash holatlari ko'rsatib beriladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag'batlantiriladi.

Qo'llash: talabalarni Behbudiylar siyosiy-ijtimoiy tafakkuri bilan tanishtirish, milliy ozodlik uchun kechgan kurashlar va Behbudiylar ishtiroki, davlat dumasi, qozilar, partiyalar, siyosiy boshqaruv usuli haqidagi Behbudiyning o'z qarashlari,

ijtimoiy-siyosiy maqolalarining ijtimoiy tafakkur tadrijiga ko‘rsatgan ta’sirini tushunishda qo‘l keladi. Bunda jurnalistika, tarix, milliy uyg‘onish sohasi mutaxassislarining fikrlari muhim ahamiyatga ega.

Natija: Behbudiy faoliyatining barcha nuqtalari: ta’lim, madaniyat, teatr, matbuot, adabiyot, siyosat – bularning barchasi milliy istiqlol, milliy o‘zlikka erishish, millatni ma’rifatli qilish yo‘lida birlashganligini tushunib yetadilar. Uning keng ijtimoiy-siyosiy tafakkuri, sud-huquq tizimi, siyosiy bohqaruv xususidagi qarashlaridan xabardor bo‘lishadi.

Tayanch tushunchalar: Turkiston mustamlakasi, rus hukumati, siyosiy harakatlar, syezd, duma, partiya, kadetlar, milliy o‘zlik, milliy til.

MULOQOTLAR

Birinchi mashg‘ulot: Turkistonda jadidchilikning shakllanishi va Mahmudxo‘ja Behbudiy.

O‘tkazish shakli: muloqot.

Turkistonda “jadid” nomini olgan ziyoli qatlam XX asrning birinchi 10 yilligida shakllanishi, Turkiston jadidchiligining asosini Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo‘qon shaharlari va atrofidagi ma’rifatparvarlar tashkil etgani, Turkistonga jadidchilik g‘oyalaring kirib kelishida jadidchilik harakatining asoschisi qrimlik Ismoil Gasprinskiyning (1851-1914) faoliyati, ayniqsa, u nashr qilgan “Tarjimon” gazetasi muhim rol o‘ynagani, Behbudiyning 1899-yili haj qilish uchun sayohatga chiqishi va islohotchilik g‘oyalari bilan tanishganligi, Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili Turkistonda mahalliy tilda chiqqan rasmiy “Turkiston viloyatining gazeti”dan boshlangani, Behbudiyning siyosatga doir nazariy qarashlari uning “Kitob-i muntaxab-i jug‘rofiya-i umumiylar va namuna-i jug‘rofiya” darsligida, “Duma va Turkiston musulmonlari”, “Xayr ul-umuri avsatuh”, “Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz” va shu kabi maqolalarida o‘z ifodasini topgan, uning adabiy, pedagogik faoliyati tahlil qilinadi.

Interfaol metod

Mashg‘ulot zamонавиъи pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma’noni anglatishi kerak)
3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘sishchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a’zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta’kidanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalfrga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. Gasprinskiy va Behbudiylar munosabatlari qaysi yillarda boshlangan?

2-jamoaga. Gasprinskiy va Behbudiyning siyosiy qarashlari, til va maorif xususidagi munosabatlarini aynan bir xil bo'lgan deb hisoblaysizmi?

3-jamoaga. "Tarjimon" gazetasining Behbudiylar faoliyatiga ta'sirini gapirib bering.

Qo'llash: mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, siyosatshunoslar, huquqshunoslar, ma'naviyat targ'ibotchilar, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birligida olib boriladi.

Natija: Gasprinskiyning Turkiston ziyolilariga, xususan, Behbudiylar ko'rsatgan ta'siri, Behbudiyning davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridan boxabar bo'lishida "Tarjimon" gazetasining o'rni, ushbu ikki ma'rifatparvarning "til birligi" masalasi qarashlari, Gasprinskiy g'oyalarini Turkistonda keng yoyishda Behbudiyning xizmatlari to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: I.Gasprinskiy, Turkiston, "Tarjimon", "til birligi"(tavhidi lison), usuli jadid maktablari, "Sayohat xotiralari".

Ikkinchi mashg'ulot: "Behbudiya kutubxonasi" va kitobxonlik

O'tkazish shakli: muloqot

Kutubxonaning ziyolilar va ilm ahliga foydasi behad ulkan bo'lganligi, u Behbudiyning keyingi faoliyati – "Oyina", "Samarqand" nashrlari uchun asos manbalardan biri bo'lib xizmat qilganligi, "Padarkush" dramasining ham ilk bor sahna yuzini ko'rishni bevosita kutubxona turkisi samarasi bo'lganligini tushuntiriladi. Ushbu kutubxonada Rossiya va xorijda nashr etilgan 225 jild kitoblar, gazeta-jurnallar, entsiklopediya, lug'atlar, xarita va atlaslar ham o'rin olganligi haqida ma'lumot berib o'tadi. Kutubxona faoliyatida Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va muallim Abdulqodir Shakuriylarning alohida o'rni bo'lganligi xususida bayon etiladi.

Interfaol metod

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi Didaktik o'yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'z bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi "Behbudiya kutubxonasi" faoliyatini yoritish, kutubxona tashkil etilishiga nisbatan qadimchi ulamolar munosabatini o'rganish, Behbudiyning ushbu kutubxonani tashkil etishda ko'rsatgan fidoyiliklarini e'tirof etish, kutubxona faoliyatini yoritish masalalariga bag'ishlanishini qayd etadi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va davlat arboblari, soha mutaxassislar, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtiroy etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumki:

- 1.“Behbudiya kutubxonasi” tashkil etilishining asosiy maqsadi?
1. Kutubxona faoliyati ulamolar tomonidan qanday tazyiqlarga uchradi?
2. Kutubxona fondini boyitishda Behbudiya qanday ishlarni amalga oshirdi?
3. Behbudiya vafotidan so‘ng kutubxona taqdiri qanday kechdi

Qo‘llash: tarixiy haqiqatni to‘gri anglab yetishda, Behbudiya faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Milliy matbuot” fanlarining tegishli mavzulariga qo‘llash mumkin.

Natija: Mahmudxo‘ja Behbudiya hayoti va ijodi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Behbudiya hayotini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san’at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo‘ladi. Talabada jadidchilik harakati, jadidlarning milliy hurriyat yo‘lidagi jasoratini xolisona baholash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar: Mahmudxo‘ja Behbudiya, “Behbudiya kutubxonasi”, ulamo, kutubxona fondi, dastur, kitobxonlar, ma’rifat, madaniyat.

MUNOZARALAR

Birinchi mashg‘ulot: Behbudiyning “Oyina” jurnali

O‘tkazish shakli: munozara.

Mashg‘ulot avvalida Behbudiyning matbuot sohasiga kirib kelshida turtki bo‘lgan omillar, Turkistondagi vaqtli matbuotning ahamiyati, dastlabki ildizlari masalalariga to‘xtalinadi. Shundan so‘ng 1913 yil 20 avgustda Behbudiya muharrirligida nashr etilgan ilk milliy jurnal “Oyina”ning faoliyati, jurnalning yuzaga kelishida Behbudiyni ruhlantirgan omil dastlabki tatar jurnali “Mir’ot” (“Oyina”) bo‘lganligi ta’kidlanadi. “Oyina”ning maqolalari o‘zbek va tojik tillarida yozilgan bo‘lib, buning ko‘proq ulushi o‘zbek tiliga to‘g‘ri kelishi, jurnalda 16 xil turdag'i materiallar berib borilganligi to‘g‘risida ma'lumot berib beriladi.

Interfaol metod

Mashg‘ulot zamонавиқ педагогик тарништасидаги “Munozarali dars” методи асосида о‘тказилади. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma’noni anglatishi kerak)
3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘sishchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a’zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta’kidanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalfrga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. "Oyina" jurnalining jadid matbuotida tutgan o'rni xususida fikr bildiring?

2-jamoaga. "Oyina" jurnalida e'lon qilingan adabiy materiallar badiiyati haqida munosabatingiz.

3-jamoaga. "Oyina" va mushtariylar e'tirozini qanday baholaysiz?

Qo'llash: mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma'naviyat targ'ibotchilar, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Turkistonidagi vaqtli matbuot, "Oyina" jurnalining tashkil topishi, jurnal sahifalaridagi muhim ilmiy-ma'rifiy maqola, sayohatnama, xabarlarning qiymati, "Oyina" Behbudiyning ma'rifatchilik g'oyalarini keng yoyishda asosiy minbar vazifasini ham o'taganligi to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: Behbudi, vaqtli matbuot, "Oyina", idora, felyeton, iqtiboslar, ruknlar.

Ikkinchi mashg'ulot: "Padarkush" dramasining tarbiyaviy ahamiyati

O'tkazish shakli: munozara.

O'qituvchi talabalarga o'zbek dramaturgiyasining ilk nishonasi hisoblangan "Padarkush" dramasining asosiy mohiyatini, g'oyaviy maqsadlarini bayon qilib beradi. "Padarkush"ning o'z davrida juda zarur vaqtida yaratilganligi, Turkistonning barcha shaharlarida sahnalashtirilganligi, dramaning ko'plab boshqa dramalarning yaratilishiga turtki bo'lganligini izohlab o'tadi. Ushbu dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma'rifat ulug'lanishi, muallif tomonidan "o'qimagan bolaning holi"ni, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib olinishi drama voqealari misolida asoslanadi. Yoshlar ta'lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o'rin tutishini drama negizida tushuntirishga urg'u beriladi.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamонавиъи педагогик төхнолоѓијанинг "Insert texnikasi" методи асосида о'tkaziladi. Mazkur метод талабаларда yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o'zlashtirishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu метод талабалар учун xotira mashqi vazifasini ham o'taydi. O'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni талабаларга tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilari orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda талабаларга quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

"V" – tanish ma'lumot.

"?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

"Q" – bu ma'lumot men uchun yangilik.

"—" bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma'lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Natija: yoshlar ushbu dramani o‘rganish davomida inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmasligi, unda ma’naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik ham bo‘lishi lozimligini anglab yetadilar, dramadagi har bir obraz tabiatni orqali o‘scha davr ijtimoiy muhiti, insonlar dunyoqarashi, axloqi to‘g‘risida xulosalar chiqarishadi. Dramadagi obrazlar orqali jamiyatdagi ilmlilar bilan ilmsizlar, ma‘rifatlilar bilan johillar, ogohlar bilan loqaydlar o‘rtasidagi kursh tasvirlanganligini anglab yetadilar.

Tayanch tushunchalar: pyesa, teatr, “Padarkush”, jaholat, ziyoli, domla, boy, Toshmurod, Tangriqul.

TAQDIMOTLAR

Birinchi mashg‘ulot: Behbudiy darsliklari

O‘tkazish shakli: taqdimot

Taqdimotda Behbudiy jadid maktablari tashkil etish bilan bir qatorda, ushbu maktablarda o‘qitish uchun bir qator darsliklar (“Risolayi asbobi savod”, (Savod chiqarish kitobi) “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiyy” (Qisqacha umumiyy geografiya), “Kitobatul-atfol” (Bolalar maktublari), “Muxtasari tarixi islom” (Islomning qisqacha tarixi), “Madxali jug‘rofiyai umroniy” (Aholi geografiyasiga kirish), “Muxtasar jug‘rofiyai Rusiy” (Rusyaning qisqacha geografiyasi) yozganligi xususida ma'lumot berib o‘tiladi. Behbudiyning nima sababdan geografiyaga ko‘p urg‘u bergenligi izohlanadi. Behbudiyning ushbu darsliklari mukammal ilmiy asar sifatida ham qimmatli ekanligi asoslab beriladi. Birgina «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiyy»ni yozishda “turkiy, arab, fors, rus tilidagi o‘ttizga yaqin kitob va risolalardan foydalanganligi to‘g‘risida ma'lumot beradi. Shu bilan birga, bu darsliklarda husnixat qoidalari, islom tarixi, savod chiqarish texnikasi kabi turli xil qimmatli ma'lumotlar borligi aytib o‘tiladi.

Qo‘llash: mashg‘ulot pedagog, tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma’naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Turkistonda usuli jadid maktablarining tashkil topishi, an‘anaviy o‘qitish tizimidan farqli jihatlari, Behbudiy ochgan maktablar, darsliklar, imtihon jarayoni, qadimchi ulamolar ta’qibi va rus hukumati tazyiqiga uchragan maktablar xususida o‘z bilimlarini oshirib boradilar.

Tayanch tushunchalar: Behbudiy, usuli jadid maktablari, o‘qitish tizimi, pedagogika, savod chiqarish, husnixat, jug‘rofiya, tarix.

Ikkinci mashg‘ulot: Behbudiy – adib

O‘tkazish shakli: taqdimot

Taqdimotda Behbudiyning adib sifatidagi faoliyatini yoritib beradi. Behbudiya faqatgina ilm va matbuotning, jahon savdo-sanoat, fan taraqqiyotini Vatan va xalq ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnini tahqiq qilish bilan kifoyalanmay, adabiyot va san'atga katta e'tibor qaratganligi to'g'risida fikr-mulohazalar bildiriladi. XIX asr oxiri XX asr boshlariga xos bo'lgan tanqidiy realizm asarlari, romantik asarlar – yuksak ma'naviyatli, vijdoni pok, insoniy nomusini, qadr-qiyomatini har narsadan yuksak qo'ygan qahramonlar hayoti tog'grisida hikoya qiluvchi badiiy asarlarga qiziqishi katta bo'lganligi, shu bois "Oq yelpig'ichli xonim" va "Bir vafodolik zaifa xususida hikoya"larni turkistonlik vatandoshlariga havola qilganligini ta'kidlab o'tiladi. Ushbu tarjimalar hamda "Padarkush yoxud O'qimagan bolaning holi" fojasi Behbudiya badiiy olamining o'lmas nishonalari ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Qo'llash: badiiy tahlil asoslari, tarjima nazariyasi fanlarining amaliy mashg'ulotlarida qo'llash mumkin.

Natija: Behbudiya tarjimalari badiiyati, "Padarkush" fojiasining g'oyaviy maqsadi, Behbudiyning jahon adabiyoti namunalariga bo'lgan qiziqishi, fransuz adabiyotiga xos muammolarga o'zbek ziyolilarini jalb etishni maqsad qilganligini anglab yetadi.

Tayanch tushunchalar: badiiy adabiyot, tarjima, pyesa, san'at, teatr, fransuz adabiyoti, "Padarkush", Oq yelpig'ichli xonim", "Bir vafodolik zaifa xususida hikoya".

IX. O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLARI RO'YXATI:

Асосий дарслер ва ўқув қўлланмалар

4. Абдирашидов З., Эгамқурова Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва "Ойина" журнали. Тошкент: Мұҳаррир, 2019.
5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. –Тошкент: Akademnashr, 2018.
6. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Тангланган асарлар (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов) 3-нашри. Тошкент: Маънавият, 1999.

Кўшимча адабиётлар

16. Алиев А. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент: Хазина, 1994.
17. Алимова Д. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. Тошкент: Академия, 1999.
18. Балдауф Ингеборг. XX asr ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001.
19. Долимов, У. Туркистонда жадид мактаблари. Тошкент: Университет, 2006.
20. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2009.

21. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент: Университет, 1999.
22. Исломил Гаспринский ва Туркистон. Тошкент: Шарқ, 2005.
23. Ризаев, Ш. Жадид драмаси. Тошкент: Шарқ, 1997.
24. Содиков, Ҳ. и др. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тошкент: Шарқ, 2000.
25. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.
26. Қосимов Б. Маслакдошлар. – Тошкент: Шарқ 1994.
27. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.
28. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
29. Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш (жадидчилик, муҳториятчилик, истиқлолчилик). Халқаро конференция материаллари. Тошкент: Маънавият, 2001.
30. Муҳаммаджонова Л. Жадид мутафаккирларининг ахлоқий-эстетик қарашлари. –Тошкент: Университет, 2007.

Elektron resurslar

1. www.ziyonet.uz
2. www.e-tarix.uz
3. www.ziyouz.com
4. www.qr.natlib.uz
5. www.media.natlib.uz
6. www.diss.natlib.uz